

Yondosh mavzu:
o'lkam tabiati.

Ko'paytuvchi,
ko'paytma, nol.



1. Masalalarga doir ifodalar tuzing.

- Buxoro bug'ularini saqlab qolish uchun qo'riqxonada uchta qo'ra qurilgan. Ularning har birida 6 kishi ishlaydi. Qo'ralarda hammasi bo'lib necha kishi ishlaydi?
- Uchta qo'raning har birida 5 tadan bug'u bolasi dunyoga keldi. Qo'riqxonada hammasi bo'lib nechta bug'u bolasi dunyoga kelgan?
- Qo'ralarning birortasida ham kasal jonivorlar yo'q. Qo'ralarda hammasi bo'lib nechta kasal jonivor bor?



2. Ko'paytirish nimani anglatishini yodga oling. Hisoblang va xulosa chiqaring.

$$0 \cdot 3$$

$$0 \cdot 5$$

$$7 \cdot 0$$

$$6 \cdot 0$$



Istalgan sonni nolga ko'paytirganda, nol hosil bo'ladi.

$$a \cdot 0 = 0 \cdot a = 0$$



3. Sanjar, Mahmud va Karim olma terib, ularni teng bo'lib olishni xohlashdi. Agar ular 18 ta olma torgan bo'lsalar, har bir bolaga nechtdan olma tegadi? $0 : 3$ ifoda nimani anglatishi mumkinligini tushuntiring.



4. O'zingiz masala tuzing va uni ifodalar bilan yeching.

$$0 : 4$$

$$0 \cdot 5$$

$$7 \cdot 0$$




Nolni istalgan songa bo'lganda, nol hosil bo'ladi.

$$0 : a = 0$$



5. Buxoro bug'ulari qo'riqxonasiga 50 qop jelud keltirildi. Ertalab bug'ularga 5 qop, kechqurun ham shuncha jelud berildi. Agar har kuni bir xil miqdorda jelud berilsa, bu oziqa bug'ularga necha kunga yetadi?



6. Qiymatlarni hisoblang, ularni o'sish tartibida joylashtiring va Buxoro bug'ulari yana boshqacha qanday atalishini bilib oling.

O $14 : 7 + 0 : 3$

N $(65 - 44) : 7$

G $5 \cdot 6 - 8 \cdot 3$

U $0 \cdot 5 + 4 \cdot 3$

L $(0 + 6) \cdot 3$

X $7 \cdot 7 - 6 \cdot 8$



7. Sxemani daftaringizga ko'chirib chizing va tushirib qoldirilgan ma'lumotlarni to'ldiring. Ko'chatzorda 139 gektar yer daraxtlar bilan band, butazorlar daraxtzordan 76 gektar kam yerni egallaydi. O'tloqzor esa butazordan 7 marta kam maydonni band etgan. Ko'chatzorning yuzi necha gektarga teng?

